

Urug'siz uzumning milliy brendi yaratiladi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genomika va bioinformatika markazida o'zbek kolleksiyasidagi O'rta Osiyo seleksiya uzum navlarining DNK markerlaridan foydalangan holda molekulyar-genetik pasportizatsiyalash amalga oshirildi. Tahlil natijasida mavjud kolleksiyadan 255 tasi o'zbek, 166 ta tojik, shuningdek, 43 ta nav namunalari turkman va qirg'iz seleksiyasiga mansubligi aniqlandi. Markaziy Osiyo seleksiyasi navlari tasniflangan ma'lumotlaridan foydalanib 15 ta qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha statistik tahlillar o'tkazildi. Ushbu tahlil natijasida oltita belgi bo'yicha o'rganilayotgan navlarning sifat tarkibini aniqlashga imkon berdi (vinobop, xo'raki va universal).



Shuningdek, uzum navlarini genotiplash, ularning genetik xilma-xilligini baholash va 9 neytral mikrosatellit markerlari yordamida shtrix-kodlash ishlari olib borildi. Kolleksiya tahlili natijasi shuni ko'rsatdiki, mikrosatellit markerlar to'plamida o'rganilgan namunalar bir-biridan 2% -87% gacha farq qiladi. Polimorfik allellar va ularning o'lchamlari bo'yicha olingan ma'lumotlarga asoslanib, Markaziy Osiyo seleksiyasining 203 navi uchun boshlang'ich genetik to'plam (pasport) aniqlandi. Ushbu genetik to'plam GENRES 081 xalqaro standarti bo'yicha kodlangan. Bundan tashqari, o'rganilgan uzum namunalarini baholash asosida veb-interfeysga ega ma'lumotlar bazasi tayyorlandi.

Shu bilan birga, Markaz tomonidan tizimli ravishda in vitro usulida uzum ko'chatlari yetishtirib berishda foydalaniladigan sun'iy ozuqa muhitlari ishlab chiqilib, quyidagi istiqbolli sharobbop, ekstpportbop uzum navlarini ko'paytirish yo'lga qo'yilgan. Shu asosda ushbu navlar: Shardone; Pino-gri; Sovinon; Kaberne; Dyubre De-Marsel; Puke; Malvaziya krasnaya; Alfons lavale. Roi ko'paytirilmoqda. Markazda qadimiy Amir Temur davridan qolgan o'zbek uzum navlarining 2500 ta virussiz ko'chatlari tayyorlandi va fermer xo'jaliklariga topshirildi. Oq dum va Qizil dum navlarining 1000 tasi Xatirchi tumaniga (Navoiy viloyati), 500 tasi Oltinsoy tumaniga (Surxondaryo viloyati), 1000 tasi Chust tumaniga (Namangan viloyati) yetkazib berildi. Natijada ona ko'chatzorlar tashkil etildi.

Bundan tashqari, Markazda urug'siz uzum navlarini DNK polimorfizmi, genetik xilma-xilligi va embrionlar rivojida turli fitogormonlarni ahamiyati va ularni genetik mexanizmini o'rganishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar boshlangan. Ushbu natijalar asosida urug'siz uzum seleksiyasida gibrid avlodlarni olishning ilmiy-asoslangan mexanizmi ishlab chiqiladi. Kelajakda eksport salohiyatini oshiruvchi yangi istiqbolli

navlar xilma-xilligi ko'paytirilib, urug'siz uzumning milliy brendi yaratiladi.